



O'ZBEKISTONDA AHOLI MOL-MULKINI SUG'URTALASHNING HOZIRGI HOLATI, MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Baratova Dinora Alisherovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Moliya bozori va sug'urta ishi" kafedrası dotsenti
email: gulzoda20@mail.com

Olmosova Munisa Sherxon qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti 3-bosqich talabasi
email: munisamolmosova@gmail.com

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 7 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss7/a29	<i>Ushbu maqolada sug'urta faoliyatida mulkiy sug'urtaning o'rni, uning xususiyatlari haqida bayon etilgan. Shu bilan birga O'zbekiston sug'urta bozorida mulkiy sug'urtaga doir asosiy ko'rsatkichlar tahlili olib borilgan. Olib borilgan tahlillar natijasida muammolar aniqlanib mualliflar tomonidan takliflar berilgan</i> <i>Sug'urta, mulkiy sug'urta, sug'urta klasslari, sug'urta bozori, sug'urta mukofotlari, sug'urta ta'rif stavkalari, sug'urta majburiyatlari, sug'urta kompaniyalari, raqobat, potentsial sug'urtalanuvchilar, sug'urta tarmoqlari.</i>
KEYWORDS	

Kirish (Introduction/Введение).

Sug'urta sohasi ikkita katta tarmoqa bo'linadi: hayot sug'urta tarmog'i hamda umumiy sug'urta tarmog'i. Sug'urta tavakkalchiliklarining va ular bilan bog'liq bo'lgan javobgarlikning umumiy xususiyatiga ko'ra sug'urta sohasi sug'urta turlariga, ya'ni sug'urta klasslariga bo'linadi. Sug'urta klasslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrda qabul qilingan 413-sonli qaroriga ko'ra sug'urta sohalari klasslarga bo'lingan.

Sug'urta tarmog'ida faoliyat olib borayotgan kompaniyalar klasslar bo'yicha ham ixtiyoriy, ham majburiy sug'urta turlarini taklif etib, sug'urta bozorida o'zlarining sug'urta portfellarini shakllantirib bormoqda. Ixtiyoriy shaklda taklif etilayotgan sug'urta xizmatlaridan bir mulkiy sug'urta hisoblanadi. Mulkiy sug'urtaga oid imkoniytlar va afzalliklar qanchalik ko'p bo'lishiga qaramasdan, mamlakatimizda uning qamrovi judayam past darajani ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz hududida qariyb 7,5 millionta uy mavjud bo'lsa, ularning hattoki 10 foizi ham sug'urta qilinmagan. Vaholanki, jamiyatimizda yuzaga kelayotgan baxtsiz hodisalar natijasida aholining birlamchi ehtiyojini qondiradigan va daromadini oshirishga xizmat qiladigan mol mulklar zarar ko'rmoqda. Oqibatda, mulkni qayta tiklash uchun aksariyat jismoniy shaxslar ham moddiy, ham ma'naviy muammolarga duch kelmoqda. Bu muammoni bartaraf etishda mulkiy sug'urtaning hajmini oshirish aholining o'z tasarrufidagi mol-mulkini sug'urtalashga bog'liq bo'lgan talabni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan izlanishlar va tadqiqotlar olib borish hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Анализ литературы по теме/Analysis of literature on the topic).

Yadgarov Akromning fikriga ko'ra Mol-mulk sug'urtasi – sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchi to'lagan sug'urta mukofotiga asosan belgilangan sug'urta puli doirasida sug'urta qildiruvchiga sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta hodisalari oqibatida sug'urtalangan mol-mulkka yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini olishidir. [1]

Mavkulova Nilufar tomonidan yozilgan maqolaga ko'ra Mol-mulk sug'urtasida sug'urta qildiruvchining mol-mulkiga bog'liq, qonunlarga zid kelmaydigan moddiy manfaatlari sug'urta obyekti hisoblanadi. Umumiy sug'urta tarmog'i bilan shug'ullanuvchi sug'urta kompaniyalari mol-mulk bilan bog'liq tavakkalchiliklarni umumiy sug'urta tarmog'i klassifikatorining 3-4-5-6-7-8-9-klasslari bo'yicha sug'urtaga qabul qilishadi. [2]

Matekeev fikriga ko'ra Mulkiy sug'urtaning quyidagicha afzalliklari mavjud:

- Baxtsiz hodisalar yuz bergan taqdirda mulklarga moliyaviy ko'mak berilishini tashkil etish;
- Mulkka yetkazilgan zararni ortiqcha xarajatsiz qisqa muddatda tiklash;
- Mulkka yetkazilgan zararni qoplash;
- Sug'urtalovchi tomonidan maksimal darajada risklarni qoplash;
- Sug'urta hodisasi ro'y berganda, zararni qoplash uchun sug'urta tovonlari o'z vaqtida to'lab beriladi;
- Mol-mulk uchun xotirjamlik va boshqalar.

Mol-mulkning sug'urta qiymati mulkning sug'urtalanayotgan vaqtidagi pul miqdori ko'rinishidagi bozor qiymati hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchining mol-mulki bo'yicha sug'urta mukofoti sug'urta kompaniyasi tomonidan tasdiqlangan yillik tarif stavkalari doirasida, har bir sug'urtalanuvchining sug'urta summasidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. [3]

G.Xalikulova tomonidan tayyorlangan maqolada "Sug'urtalangan mulkning yong'in, portlash, yashin urishi, zilzila, suv toshqini, yer siljishi, ko'chki, dovul, bo'ron, do'l urishi, jala, ko'p qor yog'ishi, buzib o'g'irlik qilish, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari, transport vositalari bilan to'qnashishi, uchuvchi apparatlarning qulashi kabi baxtsiz hodisalar oqibatida nobud bo'lishi yoki shikastlanishi sug'urta hodisasi hisoblanadi. Sug'urta davri mobaynida shartnomada ko'rsatilgan qaltisliklardan bevosita zarar yetishi, uning yo'qolishi yoki nobud bo'lishi oqibatida sug'urtalanuvchining mol-mulkiga ziyon yetishi holatlarida sug'urta qoplamasi amalga oshiriladi" deb ma'lumot keltirilgan. [4]

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Olingan natijalari (Результаты/ Results).

Olib borilgan tahlillar natijasida O'zbekiston sug'urta bozoridagi sug'urta kompaniyalarini mulkiy sug'urta bo'yicha taklif etilayotgan sug'urta xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorida sog'lom raqobat yo'qligi va sug'urta mahsulotlar asosan kredit bog'liq bo'lgan sug'urta mahsulotlar bo'yicha amalga oshirilayotgani bo'yicha tahlillar qilindi. Tahlillar natijasi bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

O'zbekiston sug'urta bozorida 38 ta sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lib, ulardan 7 tasi hayot sug'urta tarmog'i bilan, qolgan 31 tasi esa umumiy sug'urta tarmog'i bilan faoliyat olib boradi. Umumiy sug'urta tarmog'iga ixtisoslashtirilgan kompaniyalarning aksariyatida mulkiy sug'urtaga oid mahsulotlar mavjud. Sug'urta kompaniyalari mol-mulkni sug'urtalashda o'zlarining strategiyasidan kelib chiqqan holda, ma'lum bir tavakkalchiliklardan sug'urtalashni turli tarif stavkalarida sug'urtalanuvchilarga taqdim etadi. Shunga qaramasdan, sug'urtalanuvchilarda mulkiy sug'urtaga bo'lgan talab kam. Bunga misol tariqasida shuni keltirishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining idoraviy ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududida ko'p qavatli uylar soni 47 776 tani, uylar, ya'ni kvartiralar soni esa 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 7 million 301 ming 164 tani tashkil etgan. [5] Hududlar kesimida uylar soni quyidagicha:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi – 389 893 ta;
- Andijon viloyati – 645 950 ta;
- Buxoro viloyati – 442 769 ta;
- Jizzax viloyati – 259 626 ta;
- Qashqadaryo viloyati – 684 595 ta;
- Navoiy viloyati – 247 010 ta;
- Namangan viloyati – 556 475 ta;
- Samarqand viloyati – 788 302 ta;
- Surxondaryo viloyati – 491 547 ta;
- Sirdaryo viloyati – 174 991 ta;
- Toshkent viloyati – 800 767 ta;
- Xorazm viloyati – 386 860 ta;
- Toshkent shahri – 724 692 ta.

Sug'urta kompaniyalari mol-mulkni sug'urtalashda 3-klassdan 9-klassgacha bo'lgan sug'urta turlarini qamrab oladi, shundan 8-9-klasslar bo'yicha tahlil olib boramiz. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining statistik ma'lumotlariga ko'ra:

1-jadval						
Mulkiy sug'urta bo'yicha tuzilgan shartnomalar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar[6]						
Ko'rsatkichlar	31.12.2022	31.12.2023	O'zgarishlar			
Jami, shu jumladan	Amalda bo'lgan shartnomalar soni	Yangi tuzilgan shartnomalar soni	Amalda bo'lgan shartnomalar soni	Yangi tuzilgan shartnomalar soni	Amalda bo'lgan shartnomalar soni	Yangi tuzilgan shartnomalar soni
8-klass	81 563	45 937	14 818	5 635	-81,8%	-87,7%
9-klass	28 990	29 294	5 749	5 481	-80,2%	-81,3%

2024-yilda mamlakatimiz hududida uylar soni 2023-yilga nisbatan solishtirganda 2,4 foizga oshgani ma'lum bo'ldi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga qaraganda shuni ko'rishimiz mumkinki, uylar soni oshgan bo'lsada, tuzilgan shartnomalar soni ko'payish o'rniga sezilarli darajada kamayib ketgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, sug'urta kompaniyalari ushbu ikkita klass bo'yicha asosan yuridik shaxslar bilan sug'urta shartnomalari tuzgan. Jismoniy shaxslar ushbu sug'urta turidan deyarli foydalanmaganini ko'rishimiz mumkin, vaholanki, Sergeli tumanida yuz bergan kuchli portlash, Sirdaryoning Sardoba tumanidagi suv toshqini, Buxoroda bo'lgan kuchli bo'ron va boshqa ofatlardan zarar ko'rganlar aynan jismoniy shaxslar edi.

Hukumat komissiyasining 2023-yil 19-oktyabrdagi Toshkent shahridagi omborxonada sodir bo'lgan favqulodda vaziyat sabablarini o'rganish, ko'rilgan talofatlarni bartaraf etish hamda jabrlanganlarga yordam ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi axborotiga ko'ra, 2023-yilning 28-sentyabr kuni sodir bo'lgan yong'in va portlash natijasida 39 ta ko'p qavatli uylardagi 1370 ta xonadon hamda 246 ta yerli xonadonning (hovlilarning) fasad, oyna-rom, eshik va tom qismiga ziyon yetgan bo'lib, umumiy zarar miqdori 14,5 milliard so'mni tashkil etgan. Shuningdek, hududdagi 305-son umumta'lim maktabi va

600-son bolalar bog'chasining deraza-romlari, eshik va fasad qismiga zarar yetgan. Ushbu ko'rilgan zararlar davlat tomonidan qoplab berilganini barchamiz bilamiz. Bu voqea bo'yicha aholining bergan ma'lumotlariga ko'ra, ular ham moddiy tomonlama, ham ma'naviy tomonlama zarar ko'rgan. Agarda jismoniy shaxslarning xonadonlari sug'urta qilinganida ko'rilgan zararlar sug'urta kompaniyalari tomonidan qoplab berilar edi, natijada zararlar davlat xarajatlariga ta'siri bo'lmagan bo'lar edi, shuningdek, aholida sug'urta kompaniyalarining faoliyatiga bo'lgan ishonch ortgan bo'lardi. [7]

Buxoro viloyatiga kirib kelgan kuchli shamol va yomg'ir natijasida, shuningdek, Sirdaryo viloyati "Sardoba" suv omborida sodir bo'lgan texnogen ofat oqibatida aholi turar joylari, tadbirkorlar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bino-inshootlar, issiqxonalar va ekin maydonlariga katta zarar yetgan. Shu munosabat bilan "SQB Insurance" sug'urta kompaniyasi tomonidan mazkur holatlar yuzasidan kelib tushayotgan murojaatlarni zudlik bilan o'rganish va yetkazilgan zararni aniqlash uchun ishchi guruhlar tashkil etilgan. Mazkur ishchi guruhlar tomonidan murojaatchilarning sug'urta da'vo ishi zudlik bilan bartaraf etish ko'zda tutilgan. Jumladan, Buxoro viloyatidagi 7 ta sug'urta qildiruvchiga 114,3 million so'm va Sirdaryo viloyatidagi 2 ta sug'urta qildiruvchiga 119,8 million so'm sug'urta qoplamasi to'lab berilgani aniqlandi. "SQB Insurance"ning birinchi navbatdagi asosiy maqsadi sug'urta himoyasiga olingan o'z mijozlariga tezkorlik bilan amaliy yordam berish hisoblanishi aytilgan edi. Bundan ko'rinadiki, Buxoro viloyatida 442 mingdan ortiq xonadon, Sirdaryo viloyatida deyarli 175 mingta xonadon mavjud bo'lishiga qaramasdan, bitta sug'urta kompaniyasi misolida oladigan bo'lsak, Sirdaryo va Buxoroda talofat ko'rgan uylar hududdagi barcha uylarning 0,02 foizi sug'urtalanganini ko'rsatadi. Bu sezilarli darajada kichik ko'rsatkich hisoblanadi. [8]

Yana bir misolni ko'ramiz. Yangi xonadon uchun ipoteka krediti olgan jismoniy shaxslar sug'urtadan foydalanadi. Lekin, bu sug'urtani bank orqali amalga oshiradi. Bunday holatlarda sug'urta kompaniyasiga faqatgina shartnoma yetib boradi, xolos. Hatto, kuzatishimiz mumkinki, sug'urta kompaniyalari mijozlar bilan muloqotni amalga oshirmaydi. Mijoz bilan gaplashganda edi, unga ushbu kreditni sug'urta qilishning mohiyatini tushuntirib berish imkoniyati mavjud bo'lar edi, shuningdek, mijozga mulkiy sug'urtadan foydalangan holda uylarini sug'urta qilishlarini ham taklif qila olgan bo'lar edi. Buni amalga oshirish uchun, dastlab qandaydir imtiyozlar bilan yoki to'g'ridan-to'g'ri muloqot orqali mulkiy sug'urtaning mavjud imkoniyatlarini ochib berish yo'llarini topish kerak bo'ladi.

Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi hamda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan quyidagi ma'mumotlar berilgan: (qiymatlar mln.so'mda)

2-jadval

Mulkiy sug'urta bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar[9]					
Sug'urta turlari	Sug'urta mukofotlari				O'zgarish (2020-2023)
	2020	2021	2022	2023	
8-klass	1 953	3 436	2 436	1 623	-16,9%
9-klass	521	2 040	1 729	1 812	247,8%

Sug'urta turlari	Sug'urta to'lovlari				O'zgarish (2020-2023)
	2020	2021	2022	2023	
8-klass	20 092	306	106	-	-100%
9-klass	-	107	-	-	0%

Yuqoridagi jadvallardan ko'rishimiz mumkinki, ikkita klass bo'yicha umumiy o'zgarish qoniqarsiz darajada. Yillar o'tgani sari, sug'urta kompaniyalari soni ortdi, yangi mahsulotlar yaratildi, sug'urta faoliyatini rivojlantirish uchun bir qator imkoniyatlar yaratildi, lekin shunga qaramasdan ko'rsatkichlar haligacha pasayish holatida. Vaholanki, yuz bergan tabiiy ofatlar, ko'rilgan zararlardan so'ng aholida sug'urtaga bo'lgan talab uyg'onishi kerak edi. Ammo buning aksining guvohimiz, afsuski.

Mamlakatimiz aholisi sug'urta sohasidan qanchalik xabardor ekanini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnoma quyidagi savollardan iborat edi:

- Yoshingiz ?
- Yashash hududingiz ?
- Sug'urta haqida biror ma'lumotga egamisiz ?
- Mol-mulk sug'urtasi mavjud ekanligidan xabardormisiz ?
- Sug'urta xizmatidan foydalanganmisiz ?
- Mamlakatimizda sug'urta xizmati sizni qoniqtiradimi ?

- Sug'urta xizmatini 5 ballik tizimda baholang
- Mulkiy sug'urtadan foydalanib, xatarlardan holi bo'lishingizga ishonasizmi?

So'rovnoma 150 dan ortiq kishi qatnashgan bo'lib, ularning 55 foizi 20-25 yosh orasidagi yoshlardan, 66 foizi talabalardan, 27 foizi ishlaydiganlardan, 51 foizi Toshkent shahrida istiqomat qiluvchilardan tashkil topdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, qatnashchilarning 73,6 foizi sug'urta haqida biroz bo'lsada ma'lumotga ega, qolgan 26,4 foizi umuman ma'lumotga ega emasligi, 78 foiz qatnashchi mulkiy sug'urta mavjud ekanidan xabardor ekan, qolgan 22 foizi ushbu sug'urta turidan bexabar ekanligi, qatnashchilarning 72 foizi sug'urta xizmatidan foydalanmaganligi, shuningdek 46 foiz qatnashchi mamlakatimizdagi sug'urta xizmatidan qoniqmasligi, 58 foiz qatnashchi sug'urtaga ishonmasligi aniqlandi. Jumladan, qatnashchilar umumiy holatda sug'urta xizmatini 3 ball bilan baholashdi. Bundan tashqari, so'rovnoma so'nggida qatnashuvchilarning qo'shimcha fikrlarini bilish maqsadida izohlar uchun alohida bo'lim qoldirdik. Aksariyat qatnashchilar sug'urta haqida ma'lumot beradigan shaxslar yo'q ekanligini, ushbu soha ommalashtirilganda xalq uchun foydali bo'lishini, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish kerakligini, O'zbekistonda sug'urta xizmatini 100 ballik tizimda 1 ball bilan baholash mumkin ekanligini, sug'urtaga nisbatan ishonchlari yo'q ekanligini hamda O'zbekistonda sug'urtaga umuman ishonmasliklarini ta'kidlab o'tishgan. So'rovnoma qatnashchilari soni ko'payishiga qarab yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar o'zgarishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, sug'urta kompaniyalari o'z xizmatlarini yetarli darajada aholiga taqdim eta olishmayapti, sug'urta mahsulotlarini aholiga taklif qilishning optimal yo'lini topa olishmayapti. So'rovnoma natijalariga ko'ra, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qatnashchilarning 73,6 foizi sug'urta sohasidan xabardor ekanligi aniqlangandi. Ular bilan muloqot qilganimizda shuni aniqladikki, sug'urtadan "xabardor" bo'lgan aholi, faqatgina, "Transport vositalari egalari"ning fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasi mavjud ekanligini bilishar ekan. Ya'ni ushbu sug'urta turi majburiy bo'lgani uchun, Davlat Avtomobil Nazorati xodimlari tekshiruv olib borganida, shunchaki sug'urta polisini ko'rsatish va jarimadan qochish uchun ushbu xizmatdan foydalanishlari aniq bo'ldi. Bu, albatta, achinarli holat. Aholimizning aksariyati, hattoki, ushbu sug'urta turning mohiyatini ham tushunishmaydi. So'rovnoma qatnashchilarning aksariyati mulkiy sug'urta haqidagi savolga majburiy shakldagi sug'urta haqida bilishlarini hamda mulkiy sug'urta bo'yicha tasavvurga ega emasliklarini bildirishgan. Aholimizning qariyb 75 foizi mamlakatimizda sug'urta xizmati mavjud ekanligidan xabardor, lekin ushbu sohaga bo'lgan ishonchlari juda past darajada ekanligi tufayli sug'urta xizmatidan foydalanmasliklari aniqlandi.

Muammoni vaziyatlarini o'rganish jarayonida kompaniyalarning mulkiy sug'urta bo'yicha olib borayotgan strategiyasiga ham qiziqish bildirdik. Aksariyat umumiy sug'urta sohasiga ixtisoslashtirilgan sug'urta kompaniyalarida mol-mulk sug'urtasi 0,04% dan kam bo'lmagan tarif stavkasida sug'urta xizmati iste'molchilariga taklif etiladi. Bu ko'rsatkich sug'urtalanayotgan obyektlarning risklilik darajasi turlicha bo'lishidan qat'iy nazar, ko'pgina kompaniyalarda deyarli bir xil. Bundan ko'rinadiki, sug'urta kompaniyalari o'rtasida sog'lom raqobat mavjud emas. Sug'urta tarif stavkalari bugungi kunda sug'urta kompaniyalari faoliyatini rivojlantirish uchun emas, balki sug'urta bozorida o'z o'rnini yo'qotib qo'ymasligi uchun belgilanmoqda, xolos. [10]

Yuqorida olib borgan tadqiqotlarimiz bo'yicha quyidagi xulosa va takliflarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Xulosa (Заключение. Conclusion).

Xulosa o'rnida yuqorida olib borgan tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, respublikamizda mulkiy sug'urtadan foydalanishga bo'lgan talab yuqori emasligi hamda respublika hududidagi mol-mulkni barchasini qamrab olish bo'yicha jozibadorligi yuqori bo'lgan sug'urta mahsulotlarini taklif qilish hozirgi zamon talablaridan biri ekanligi aniqlandi. Bu holatga ta'sir qiluvchi bir qancha salbiy omillar mavjud. Ulardan biri aholining aksariyat qismining moliyaviy imkoniyatlarining kamligiga, sug'urta savodxonligining yetarli darajada emasligiga borib taqaladi. Lekin, shartnoma ikki tomonlama bo'lganligi sababli, faqatgina bir tomonga emas, balki ikkinchi tomonga ham e'tibor beradigan bo'lsak, sug'urta kompaniyalarining o'zlari yaratgan sug'urta mahsulotlarini aholiga taqdim etishi masalasida oqsayotganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, sug'urta kompaniyalari mulkiy sug'urta bo'yicha asosan katta obyektlarni sug'urtaga olish uchun turli tendrlarda ishtirok etishadi yoki sug'urta

agentlari orqali sug'urtani amalga oshirishadi. Kompaniyalarda yuqorida sanab o'tilgan ofatlardan zarar ko'rgan aholiga, umuman mamlakatimiz aholisining deyarli barchasiga sug'urta mahsulotlarining jozibadorligini ko'rsatib bera olish imkoniyati yaratib berilmaganligi, mulkiy sug'urta bo'yicha aholining sug'urta savodxonligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan samarali ishlar olib borilmayotganligi, hozirgi kunda sug'urta bozoridagi ko'rsatkichlar bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalarida mijoz va kompaniyaning to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilmayotganligi bilan bog'liq muammolar mavjud. Shu bilan birgalikda, aytishimiz mumkinki, O'zbekiston sug'urta bozori taklif etayotgan "mulkiy sug'urta" xizmatlari 3-4-5-6-7-8-9-klasslar doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu sug'urta mahsuloti umumiy sug'urta tarmog'i bilan faoliyat olib boruvchi barcha sug'urta kompaniyalarida mavjud. Lekin, bu mahsulot faqatgina ishlab chiqarilganicha qolib, kompaniyalar o'z e'tiborlarini daromadi yuqori bo'lgan obyektlarga qaratishmoqda, xolos. Tahlil natijalari mulkiy sug'urta bo'yicha ishlab chiqarilgan sug'urta mahsulotlari respublikamizning, hech bo'lmaganda, yarmini ham qamrab olmaganini ko'rsatdi. Mulkiy sug'urta bo'yicha sug'urta xizmatlari yetarli darajada emasligiga yana bir misol tariqasida shuni keltirishimiz mumkinki, 2022-yil hisobida 8-klass bo'yicha to'lab berilgan sug'urta to'lovlari ushbu klass bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalariga ko'ra kelib tushgan sug'urta mukofotlarining 4,35 foizini tashkil qilmoqda, 9-klass bo'yicha esa bu ko'rsatkich 0% ga teng.

Yuqoridagi muammolarga o'zimizning takliflarimizni keltirib o'tamiz.

- sug'urta kompaniyalarida jozibadorligi yuqori bo'lgan sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish hamda ularni aholiga taqdim etishning samarali yo'llarini ishlab chiqish kerak. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda reklamani kuchaytirish, yoki aholi punktlarida kerakli bo'lgan ishlarni amalga oshirish lozim. Misol tariqasida Sergeli tumanida yuz bergan hodisadan so'ng sug'urta kompaniyalari aholi punktlariga borib, tadqiqot-tashviqot ishlari olib borishlari, umumiy yig'ilishlar o'tkazib, aholiga sug'urtaning dolzarbligini, uning mohiyatini ko'rsatib berishlari mumkin edi. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda yuz bergan baxtsiz hodisalarini, tabiiy ofatlarni misol tariqasida keltirgan holda reklama roliklarini joylashtirish, shu bilan birgalikda, kompaniya xodimlari zimmasiga ma'lum bir miqdordagi mulkiy sug'urtani amalga oshirish bo'yicha topshiriqlar berish, shuningdek, aholida sug'urtaga bo'lgan tushunchani hisobga olgan holda, muammoga doim e'tibor bilan qarash lozim;

- kompaniya strategiyasidan kelib chiqqan holda, sug'urta to'lovlari hajmini oshirish. Sug'urta to'lovlari sug'urta kompaniyasiga mijozlarni jalb qilishning eng yaxshi reklamasi hisoblanadi;

- sug'urta hodisalari natijasida zarar ko'rgan mulkni to'g'ri baholovchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash;

- sug'urta bozorida sog'lom raqobatni shakllantirish;

- aholining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, davlat bilan birgalikda xususiy sherikchilikka asoslangan mikrosug'urta turlarini ishlab chiqish;

- sug'urta shartnomalari bo'yicha mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash bo'limini tashkil qilish. Sug'urta kompaniyalarida individual shaxslar bilan ishlash bo'limini tashkil qilish ham sug'urtaga bo'lgan ishonchni orttiradi hamda mijozda kompaniya haqida, sug'urta turlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi;

- samarali marketing tizimini yo'lga qo'yish. Marketing ishlari ma'lum bir xarajatlarni paydo qilsada, bu masalaning yechimi sifatida optimal variantni oladigan bo'lsak, hozirgi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlarning, texnologiyalarning rivojlanganligi sababli, sug'urta mahsulotlarining jozibadorligini ko'rsatib beruvchi, sug'urtaning qay darajada muhim ekanligini anglatuvchi video-roliklarni ijtimoiy tarmoqlarga joylab, shu orqali sug'urtani aholiga reklama qilish imkoniyati mavjud.

Yuqorida keltirib o'tilgan takliflar barcha sug'urta kompaniyalarida joriy etiladigan bo'lsa, nafaqat yuridik shaxslar, balki jismoniy shaxslarni ham sug'urtaga qamrab olish darajasi kengayadi, jismoniy shaxslar deyarli barcha sug'urta kompaniyalari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishadi. Bu shubhasiz, sug'urta kompaniyasining faoliyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Vaholanki, sug'urta kompaniyalarining imkoniyatlari shunchalik kengki, qanchalik sug'urta mahsulotlarini aholiga taqdim etsa, potensial sug'urtalanuvchilarni sug'urtaga jalb qila olsa, qanchalik ko'p obyektni sug'urtaga qamrab olsa, uning moliyaviy holati ham oshadi, shu bilan birgalikda, mamlakatimiz aholisiga ham moliyaviy, ham ijtimoiy yordam

berishda juda katta xizmat ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, sug'urtaga bo'lgan ishonchni ham ortishiga olib keladi.

References:

1. Yadgarov Akram Akbarovich. (2023). BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA SUG'URTA FAOLIYATIGA ILMIY YONDASHUVLAR. Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 5–7. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/56>
2. Mavkulova Nilufar Abdulkhalilovna. (2023). UMUMIY SUFURTA SOXASI MOHIYATII NATAJALARINING MAMLAKAT IKTISODIIY USHSHI GA TAYSI RI TAHLILI (ECONOMETRIC MODELING OF THE RESULTS OF THE ACTIVITY OF THE INSURANCE MARKET). Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 18–22. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/60>
3. Матеев, А. (2023). МАМЛАКАТИМИЗДА ИНВЕСТИЦИЯ МУХИТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ФАКТОРЛАР ТАХЛИЛИ. Страховой рынок Узбекистана, 1(2), 43–48. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/69>
4. Халикулова, Г. (2023). СУФУРТА ТИЗИМИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. Страховой рынок Узбекистана, 1(3), 7–10. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/36>
5. <https://stat.uz>
6. <https://napp.uz/uz>
7. <https://lex.uz/docs/-180552?ONDATE=05.11.2023>
8. <https://uza.uz/uz/posts/su-urta-kompaniyalari-pul-t-laydimi-01-06-2020>
9. <https://lex.uz/docs/-180552?ONDATE=05.11.2023>
10. [https://gov.uz/news/view/3210/..](https://gov.uz/news/view/3210/)